

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI
DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'RGATISH
YO'LLARI.**

Qobulova Nodira Bahodirovna

f.f.d. (PhD) -Navoiy davlat pedagogika instituti.

Ochilova Guljahon Hamroqulovna

*Navoiy davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi*

2-bosqich magistranti.

Baxronova Sarvinoz Akbar qizi

*Navoiy davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi*

2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarini o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalari:maqol,masal,ibora,ertak,hikmatli so'zlar bilan orqali ular ongida yangi so'z hosil qilish,nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish kabi mavzular yoritilgan,*

Kalit so'zlar: *Xalq og'zaki ijodi, maqol,ibora ,nutqiy kompetensiya, nutqiy mashq,og'zaki nutq, yozma nutq, yorqin nutq, o'qish va tushunish.*

Barchamizga ma'lumki,bugungi kunda har bir fanga yangicha yondashish,yangicha nigoh bilan qarash har bir zamonaviy o'qituvchining zamon talabiga aylanib qoldi.Uzluksiz ta'limda bolalarga ta'lim beribgina qolmasdan,ularga tarbiya berish,ularni zamon talabi bilan uyg'un holda o'qitish biz o'qituvchilarning zimmamizdagi buyuk burchimizdir.Bolalarga tarbiya jarayonini olib borishda hikmatli so'z,maqollar va xalqimizning boy merosi bo'lgan – iboralar katta ahamiyatlidir. Bugungi gaballashuv jarayonida har tomonlama entelektual rivojlanayotgan yosh avlod uchun yangidan yangi ma'lumotlarga tezkor bilimga ehtiyoj nihoyatda kuchli. Ona tili va o'qish savodxonligi fani aynan shu maqsadda tuzilgan bo'lib darslikning bosh g'oyalardan biri: o'quvchini lug'at boyligini oshirish til ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qaroriga ko'ra "Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim o'quv dasturlari va fanlarining uzluksizligini va uzviyligini ta'minlash" vazifasi ijrosini ta'minlash bo'yicha tayyorlangan

Umumiy o'rtta ta'limning ona tili (1-11-sinf) Milliy o'quv dasturiga berilgan xulosada ham: "Milliy o'quv dasturining ijobiy tomoni, har bir mavzu o'quvchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. [1;3] – kabi fikrlar bayon etilgan.

Vatan, xalq uchun qilgan xizmatlari, aziz avliyolar ilmu-urfonni haqida mamlakat osoyishtaligi tinchligi, xalq or-nomusi uchun kurashgan sarkardalar haqida, qolaversa Vatanning har bir go'shasi xususida ota-bobolarimiz yaratgan rivoyatlar o'zining ilmiy, badiiy ahamiyati bilan qimmatlidir. Rivoyatlarni izchil o'rganish va tadbiiq qilish yosh avlod kamoloti uchun muhim manba hisoblanadi.

Bugungi kundagi quvonarli yangiliklardan biri bo'lgan, hayot va ilm, fan to'la qonli qamrab olingan yangi darsligimizda ham xalq og'zaki ijodidan ko'zlanayotgan maqsad ham aynan shudir. 1- sinflar uchun mo'ljallangan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida mantiqan ma'noli hamda chiroyli jumlar bilan yozilgan "Jonli savatcha" she'riy ertagi bolalarning sevimli ertagidir. She'riy ertak mazmunan o'zida ko'p ma'noni yuklagan bo'lib tub mohiyatida birlik, ahillikdir. Ertak yo'l chetida yotgan chiroyli, bejirim bir savatchani ta'riflash bilan boshlanadi, unda tuxumini yorib chiqolmayotgan jo'jacha bo'lib, tuxumdan qanday xalos bo'lishni bilmay turgan polaponga avval kapalak yordam berishga urunadi:

Ana tashvish, ana g'am, ana mashmasha,

Chiqa olmas jo'javoy tuxumni yorib.

Uchib kelib yoniga shu chog' kapalak

Yordam bermoqchi bo'ldi, unnadi horib.

Keyingi safar nariroqdan turgan chuvalchang ham "Jim o'tirsang, tuxumdan chiqishing gumon, harakat qil, o'tirma menga mo'ltirab ", - deb maslahat soladi. Shu payt bir chumchuq kelib tuxumning tepasini cho'qiy boshlaydi, afsuski, uning jo'jachaga bergan yordami shu bo'ldiki, "Cho'qib oldi oxiri jo'jani bilmay".

Nima qilishini bilmay turganda bir chumoli o'z rejasini amalga oshirib, jo'jani eson-omon chiqarib olishadi:

Picha reja tuzdi-da, o'rmonga qaytdi,

Yetib keldi zum o'tmay do'stlarin boshlab.

Birgalashib jo'jani tortib oldilar:

Ahillikda, birlikda, haqrost, ko'pdir gap.

Ushbu she'riy ertakda ilgari surilgan g'oyalar: ahillik, do'stlik, birdamlikdir. Bundan tashqari chuvalchangning so'zlaridan dangasa bo'lmaslik, har doim harakatda bo'lishlik kabi yashirin ma'nolarni ham ilg'ashimiz mumkin.

Bunday ertaklar bolalarga yomonlik va yaxshilik,ezgulik va yomonlik, yolg'on so'z va rost so'z, zulm va adolat haqidagi tushunchalarni anglatish bilan birga, yaxshi va yomon kishilar obrazlarini ham yaqqol tasvirlaydi.Dunyoviy dunyoqarashi kengayib,oddiy tasvirlar ,voqea-hodisalarning sodda holatlari mukammallashib boradi.Ertaklar,avvalo,bolalarning jonivorlarga,hayvonlarga,parrandalarga bo'lgan qiziqishi mehrini oshirsa,ikkinchidan ahillik orqali,yumushlarni oson bajara olish, farovon,tinch va osoyishta hayot kechirish mumkinligi uqtiriladi.Ertak mazmunidan kelib chiqib,shunday maqollarni ham keltirishimiz mumkin: "Ahil ishlasang, ish unar,Har ishing oson bo'lar."

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarori.
2. Nurmamatova S., Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jahon ertaklari orqali axloqiy tarbiyalash yo'llari, Jizzax-2020.
- 3.Jumaboyev M. "Bollar adabiyoti va folklori"—T.O'qituvchi,1990.
- 4.Imomov K.,Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetic ijodi,-Toshkent, "O'qituvchi",1990.
- 5.Azimova I., Ona tili va o'qish savodxonligi,1-sinf,Toshkent-2021.